

ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

JOPAPS




JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

Volume 1, Issue 5

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ



ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 5-СОҢ

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-5

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-5

ТОШКЕНТ - 2023

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 5 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-5>

Бош муҳаррир:

Нишонова З. – психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов О. Ғ. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори

Таҳририят аъзолари:

Абдужаббарова М. – педагогика фанлари номзоди, доцент
Абдурахимов Қ. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Акмалов А. – педагогика фанлари номзоди, доценти
Акрамова Ш. – педагогика фанлари доктори, профессор
Алиев М. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори
Джураев Д. – педагогика фанлари доктори
Душанов Р. – психология фанлари номзоди, доценти
Негматовна Г. – педагогика фанлари номзоди, доцент
Разакова Р. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тўйчиева С. – психология фанлари номзоди, доцент

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

Психология фанлари

ALIJONOV Nurbek

Farg‘ona davlat universiteti

o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7952993>

ALTURIZMNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIYASI VA ALTURISTIK XULQ-ATVOR

ANNOTATSIYA

Maqolada alturizm tushunchasi, alturist insonlarga xos bo‘lgan xususiyatlar, xarakterlar va alturistik xulqni ijtimoiy psixologik tadqiqotlari, alturistik xulqni keng ma‘noda tadqiq etish va olingan natijalarni amaliyotda qo‘llash haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: alturizm, alturistik xulq, empirik, prosotsial xulq, xarakter, kriteriya.

АЛИЖАНОВ Нурбек

Ферганский государственный университет

преподаватель

СОЦИАЛЬНАЯ ПСИХОЛОГИЯ АЛЬТУРИЗМА И АЛЬТУРИСТИЧЕСКОЕ ПОВЕДЕНИЕ

АННОТАЦИЯ

В статье говорится о понятии альтуризма, характеристиках, характерах и социально-психологических исследованиях альтуристического поведения, исследованиях альтуристического поведения в широком смысле и практическом применении полученных результатов.

Ключевые слова: альтуризм, альтуристическое поведение, эмпирическое, про социальное поведение, характер, критерий.

ALIJANOV Nurbek

Fergana State University

teacher

SOCIAL PSYCHOLOGY OF ALTURISM AND ALTHURISTIC BEHAVIOR

ANNOTATION

The article talks about the concept of altruism, characteristics, characters and social psychological research of altruistic behavior, research of altruistic behavior in a broad sense, and practical application of the obtained results.

Key words: altruism, altruistic behavior, empiric, prosocial behavior, character, criterion.

Alturizm tushunchasini fanga ilk bora fransuz faylasufi va sotsiologiya fani asoschisi O.Kont olib kirgan. U ushbu tushunchani insoniyatning beg'araz yordam ko'rsatishining uyg'onishi bilan bog'liq bo'lgan harakatlari deb tushuntiradi. O.Kont fikriga ko'ra alturizm prinsipi quydagicha hisoblanadi: "O'zgaralar uchun yasha". Uning fikriga ko'ra alturizm xudbinlikning teskarisi va bunday xulq-atvor egasining o'zgaralarga foyda keltirish faolligi nazarda tutiladi [1, B.67].

Alturizm – ongli va o'z xohishi bilan odamlarga xizmat qilish, ularning baxtli bo'lishiga muhabbat, sodiqlik, o'zaro tushunuvchanlik, g'am chekish, qayg'urish motivlari asosida ko'maklashish deb qabul qilinishi mumkin. Ayrim xolatlarda alturist o'zini qurbon qilishga tayyor bo'ladi, u o'z baxtidan, qiziqishlaridan va maqsadlaridan ham voz kechishga tayyor bo'ladi

Empirik tadqiqotlarda inson xulq-atvorining alturistik qobilayatlari tadqiq etiladi, ular quyidagi ko'rinishdan iborat.

1. Axloqiy xulq-atvor kriteriyalari (Dr. Rayt)
2. Shaxs rivojlanishini yuqori etaloni (L.Kolberg, T.Laytkona)
3. Shaxs xususiyati sifatida (I.A.Velichko).

Alturist insonga shaxsiy hayotida hech narsa kerak emas. U "hayotda hech narsa kerak emas" holatiga oson kira oladi. U boshqa insonlar hayotiga oson o'ta oladi, o'zgaralar muammosi uning shaxsiy hayotiga kirib keladi [2,B.89].

Rus faylasufi V.S.Solov'ev "Mehrni yoqlash" kitobida alturizmni rahm-shavqat bilan asoslab, uni inson tabiatini tabiiy ko'rinishi deb xisoblasa, uning teskarisini (egoizm, tanxolik) xastalik deb ta'riflaydi.

Hech bir inson jamiyatdan tashqarida, yakka holda yashamaydi. U odamlar orasida o'sadi, ulg'ayadi, hayot kechiradi, o'zining butun hayoti va faoliyati davomida har xil toifadagi ko'plab insonlar, kattayu kichik bilan muloqotlar qiladi. Bu insonning o'z kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan kelib chiqadi.

Jamoa bo'lib yashash jamiyatda qabul qilingan urf-odat, an'ana va qonun-qoidalarga amal qilishni talab etadi. Bu jarayonda inson va jamiyat o'rtasida yuzaga keladigan obyektiv aloqadorlik ya'ni ijtimoiy munosabat - xulq-atvor, odob, xatti-harakat tamoyillari va me'yorlarining majmuasi axloqning mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

B.F.Skiner alturizm hodisasini tahlil qilib, quyidagi xulosaga keldi: "Biz insonlarni mardonavor xarakterlarini tushuntira olmasakgina ularni hurmat qila boshlaymiz. Bunday insonlar xulqni tashqi tamondan tushuntira olmaganimizdagina, bu harakaytlar uning ichki xolati bog'liq deb qo'yamiz..."

Empirik psixologik tadqiqotlarning rivojlanishi bilan aniq bo'lmagan alturizm, foyda keltirishlik tushunchalari sekin asta ko'p qo'llaniladigan "prosotsial xulq-atvor" termini bilan almashtirildi.

Axloqiy madaniyat va munosabat, faoliyat va ijod, ong va g'oya, did va baho kabi qator tushuncha va kateqoriyalarni axloq ehtiyoji, degan tushuncha yordamisiz to'g'ri va to'liq tushuntirib bo'lmaydi. Umumbashariylik ko'pqirralik yaxlitliq beg'arazlik milliylik va baynalmilallik hozirgi istiqloq davrida axloqiy ehtiyojlarning mushtarak tamoyillaridir. Axloqiy faoliyat esa shaxsning shakllanishi, kamol topishiga sabab bo'ladi. Shu tarifa axloq inson faoliyati shakllarining, insoniylik ya'ni komillik mezoniga aylanib boradi. Insonning axloqi uning ongi, bilimi va badiiy didiga bevosita bog'lik.

Etika fani axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini **o'rganadi**. Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bo'lsak doiraning *eng kichik qismini odob*, undan *kattaroq qismini xulq* eng *qamrovli qismini axloq* egallaydi.

Alturistik xulqning jinsiy tafovutlari ham mavjud bo'lib, u quydagilarda namoyon bo'ladi: ayollar, odatda uzoq davomiy prosotsial xulqni namoyon qiladilar. Masalan, yaqinlari haqida qayg'urish. Erkaklar esa qaytarilmas "qahramonlik" ko'rsatishga moyil bo'ladilar. Masalan, yong'in chiqqandagi qahramonlik. Bunday qahramonlikda aniq ijtimoiy normalardan tashqari bo'lgan harakatlarni kuzatishimiz mumkin [3, B.45].

Gerbet Saymon fikriga ko‘ra prosotsial xulq tabiiy tanlash xolatida imtiyozga ega bo‘ladi va qaysidir ma’noda, alturizmni insonga genetic tarzda singdirilgan dastur sifatida qabul qilish mumkinligini takidlaydi. Albatta bu yerda shaxsning xarakter tipologiyasi ham nazarda tutilishi maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumki, uchinchi ming yillikka kelib, insoniyat sivilizatsiyasi umumbashariy miqyosga ega bo‘lgan ko‘plab muammolar bilan to‘qnashdi. Bular qatoriga – Er yuzida tinchlikni asrab qolish va termoyadro urushining havfini oldini olish, ekologik halokat, demografik muammolar va insoniyat hayoti uchun zarur bo‘lgan ichimlik suvi, oziq-ovqat, energiya resurslarining taqchilligi muammosi, narkotrafik va qurol savdosi, diniy aqidaparastlik hamda bevosita shularga bog‘liq xalqaro terrorism va ekstremizmning tahdidi; alkogolizm, giyohvandlik, odam savdosi kabilar kiradi. Ularning hal etilishi, oxir oqibat aynan shaxs ma’naviyatini yuksaltirish, axloqiy jihatdan kamol toptirishga yo‘naltirilgan o‘ta murakkab bo‘lgan vazifalarning bajarilishi bilan bog‘liq ekanligi tobora aniq bo‘lib bormoqda.

Kundalik hayotimizda tilimizda «xarakter» so‘zi eng ko‘p ishlatiladigan so‘zlardan. Uni biz doimo birovlariga baho bermoqchi bo‘lsak, ishlatamiz. Bu so‘zning ma’nosini olimlar «bosilgan tamg‘a» deb ham izohlashadi. Tamg‘alik alomatlari nimada ifodalanadi o‘zi?

Xarakter - shaxsdagi shunday psixologik, subyektiv munosabatlar majmuiki, ular uning borlikka, odamlarga, predmetli faoliyatga hamda o‘z-o‘ziga munosabatini ifodalaydi. Demak, «munosabat» kategoriyasi xarakterni tushuntirishda asosiy hisoblanadi. B. F. Lomovning ta’biricha, xarakter shaxs ichki dunyosining asosini tashkil etadi va uni o‘rganish katta ahamiyatga ega [4, B.92].

Alturistik xulqni ijtimoiy psixologik tadqiqotlariga ko‘ra muhim ro‘lni shaxsning shaxsiy ma’suliyati o‘ynaydi. Agar qarorni guruh qabul qilgan bo‘lsa ma’suliyat guruh a’zolari o‘rtasida bo‘linadi, bu jarayonda guruh a’zosining shaxsiy ma’suliyati kamayadi. D.A.Leontevning ta’kidlashicha, Li Ross va Richard Nisbattning ta’rifiga tayangan holda quyidagicha ma’lumotni beradi: “agar siz bilan biron narsa sodir bo‘lgan bo‘lsa, agar siz o‘zingizni yomon xis qilsangiz yordamga muhtoj bo‘lsangiz, atrofingizda odamlar to‘xtamasdan befarq o‘tayotgan bo‘lsa, aniq bir odamga murojat etmasdan yordam so‘rash befoydadir. Biron bir kishini tanlab, unga qarab yordam so‘rang ana shunda nsizga yordam ko‘rsatilish imkoniyati bir necha marotaba ko‘payadi”.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda alturistik xulqni keng ma’noda tadqiq etish va olingan natijalarni amaliyotda qo‘llash jamiyat uchun muhim bo‘lgan ilmiy yangilik hisoblanadi.

IQTIBOSLAR/ЧОСКИ/REFERENCES

1. Nurbek, Alijonov; Management Psychology Leader and Its Characteristics, **IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI**,1,1,13-16,2021,
2. Nurbek, Alijonov; The Combination of Social Relationships and Psychological Health, **Conference Zone**,268-270,2021,
3. Alijonov, N; **„RAHBAR FAOLIYATI SAMARADORLIGIDA PSIXOLOGIK SALOMATLIKNING O‘RNI**,Мировая наука,,3 (60),3-10,2022,ООО «Институт управления и социально-экономического развития»
4. Alijonov, Nurbek; **IMPLEMENTING THE PSYCHOLOGICAL HEALTH OF LEADERS IN THE FIELD OF EDUCATION**, **Galaxy International Interdisciplinary Research Journal**,10,5,631-634,2022,
5. Nurbek, Alijonov; **„Psixologik Salomatlik Va Uning Mohiyati, BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI**,1,6,666-669,2021,
6. Юнусова, Гузаль Султановна. "РАЗВИТИЕ ВООБРАЖЕНИЯ МОЛОДЕЖИ И ПОДРОСТКОВ, ВОСПИТЫВАЮЩИХСЯ В БЛАГОПОЛУЧНЫХ И НЕБЛАГОПОЛУЧНЫХ СЕМЬЯХ." **Theoretical & Applied Science** 6 (2013): 91-94.
7. Mohinur, D. (2022). **KREATIVLIK YANI IJODKORLIK VA BU BORASIDA NAZARIY QARASHLAR. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI**, 63-65.

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 5-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-5

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-5

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz